

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INGLIZ TILIDA OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Mutalliyeva Malika Boxodirovna

Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Email: malikamutalliyeva89@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22137272>

Annotatsiya. Ushbu tezida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik tamoyillar ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilingan. Kommunikativ yo‘naltirilganlik, ongliklik va faollik, ko‘rgazmalilik, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish, tizimlilik va izchillik, ta‘limning hayot bilan bog‘liqligi hamda interfaollik tamoyillarining mazmuni ochib berilgan. Mazkur tamoyillarning CEFR talablari, boshlang‘ich ta‘lim mazmuni va zamonaviy kommunikativ metodlar bilan o‘zaro aloqasi asoslangan. Shuningdek, ingliz tili darslarida og‘zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni tanlash va tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijasida didaktik tamoyillarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘langan yaxlit metodik tizim sifatida qo‘llash zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, ingliz tili, og‘zaki nutq, didaktik tamoyil, kommunikativ kompetensiya, dialogik nutq, monologik nutq, interfaol metod, CEFR.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini amaliy egallash jamiyatning muhim ijtimoiy va ta‘limiy talablaridan biriga aylandi. Chet tilini bilish faqat grammatik qoidalar va lug‘aviy birliklarni o‘zlashtirish bilan belgilanmaydi. O‘quvchi o‘rgangan til materialidan real muloqot vaziyatlarida foydalana olishi, savol berishi, suhbatdoshining fikriga munosabat bildirishi va o‘z fikrini sodda, tushunarli shaklda ifodalashi lozim.

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi ingliz tilida dastlabki kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish uchun muhim davr hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda taqlid qilish qobiliyati, obrazli tafakkur, harakat va o‘yin orqali o‘rganishga moyillik nisbatan kuchli bo‘ladi. Shu sababli ingliz tili darslarida og‘zaki nutqni rivojlantirish jarayoni o‘quvchilarning yosh, psixologik va lingvistik imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etilishi zarur [1; 2].

J.Jalolov chet tilini o‘qitishning amaliy maqsadi o‘quvchida til vositalaridan kommunikativ faoliyatda foydalana olish malakasini shakllantirishdan iboratligini ta‘kidlaydi [3]. CEFRda ham til o‘rganuvchining kompetensiyasi uning ma‘lum kommunikativ vaziyatda qanday nutqiy harakatni bajara olishi bilan baholanadi [4]. Demak, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirish darsning alohida qismi emas, balki barcha metod, mashq va vositalarni birlashtiruvchi asosiy yo‘nalish bo‘lishi kerak.

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich ta‘limda ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirishning asosiy didaktik tamoyillarini aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini yoritish va amaliy qo‘llash shartlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi umumdidaktik va xususiy-metodik tamoyillar o‘zaro bog‘langan yagona tizim sifatida tavsiflanadi hamda ularning kommunikativ mashqlarni tashkil etishdagi vazifalari aniqlashtiriladi.

Boshlang‘ich ta‘limda og‘zaki nutqni rivojlantirishning asosiy didaktik tamoyillari:

Kommunikativ yo‘naltirilganlik tamoyili. Kommunikativ yo‘naltirilganlik ingliz tilini o‘qitishning asosiy metodik tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko‘ra, til birliklari o‘quvchiga alohida va vaziyatdan tashqari holatda emas, balki muayyan muloqot ehtiyojini ifodalash vositasi sifatida o‘rgatiladi. O‘quvchi so‘z va grammatik shaklni nima uchun ishlatayotganini anglashi hamda undan amaliy vaziyatda foydalana olishi zarur.

Boshlang‘ich sinflarda “My family”, “My school”, “My day”, “Food”, “Animals” va “Hobbies” kabi mavzular o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga yaqin bo‘lgani uchun tabiiy muloqot muhitini yaratadi. Masalan, o‘qituvchi “What do you do after school?” deb savol berganda o‘quvchi “I play football”, “I do my homework” yoki “I help my mother” shaklida javob berishi mumkin. Keyingi bosqichda javob “I play football after school because it is fun” ko‘rinishida kengaytiriladi.

CEFRning boshlang‘ich darajalarida o‘quvchidan tanish mavzularda oddiy savol-javobda ishtirok etish, o‘zi, oilasi, kundalik mashg‘ulotlari va qiziqishlari haqida sodda gaplar bilan fikr bildirish talab etiladi [4]. Shuning uchun darsdagi topshiriqlar ham aynan shunday nutqiy harakatlarga yo‘naltirilishi kerak.

Onglilik va o‘quvchi faolligi tamoyili. Og‘zaki nutq ko‘nikmasi o‘qituvchining tushuntirishini passiv tinglash orqali emas, balki o‘quvchining faol nutqiy ishtiroki jarayonida shakllanadi. O‘quvchi yangi so‘z yoki nutqiy qolipning ma‘nosini anglashi, uni qaysi vaziyatda qo‘llash mumkinligini tushinishi va mustaqil nutqda ishlatishga harakat qilishi kerak. Bu tamoyil savol – javob, juftlikda ishlash, rolli o‘yin, axborot almashish, hikoya tuzish va kichik taqdimotlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, “At the shop” rolli o‘yinida bir o‘quvchi sotuvchi, ikkinchisi xaridor vazifasini bajaradi:

- Can I have an apple, please?
- Yes, here you are.
- How much is it?
- It is two thousand soums.

Bunday vaziyatlarda o‘quvchi tayyor til materialini shunchaki takrorlamaydi, balki undan muayyan kommunikativ maqsadda foydalanadi. T. A. Mugo va A. Bwire interfaol strategiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darsdagi ishtiroki va og‘zaki faolligini oshirishini ta’kidlaydi [5]. O‘qituvchining vazifasi esa barcha nutqni o‘zi bajarish emas, o‘quvchilar uchun ko‘proq gapirish imkoniyatini yaratishdan iborat.

Ko‘rgazmalilik va multimodalilik tamoyili. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda ko‘rgazmali – obrazli tafakkur ustun bo‘lganligi sababli rasmlar, o‘yinchoqlar, real buyumlar, kartochkalar, mimika, harakat, audio va videomateriallar ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Ko‘rgazmali vosita so‘zning ma‘nosini tarjimasiz anglash, eslab qolish va nutqda qo‘llash imkoniyatini oshiradi. Masalan, hayvonlar tasvirlangan rasm asosida o‘quvchilarga quyidagi tayanch savollar beriladi:

- What animal is it?
- What colour is it?
- Where does it live?
- What can it do?

O‘quvchi dastlab “It is a tiger. It is orange and black” kabi ikki gapdan foydalanadi. Keyinchalik o‘qituvchi kalit so‘zlar va nutqiy tayanchlar yordamida javobni besh-olti gapli kichik monologga aylantiradi. Ko‘rgazmalilik bu o‘rinda faqat darsni qiziqarli qilish emas, balki mustaqil nutq yaratishni qo‘llab-quvvatlovchi didaktik vosita hisoblanadi.

Yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish tamoyili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining diqqatini uzoq vaqt bir faoliyatga jalb etish qiyin. Ular harakatli, qisqa, hissiy va tez almashib turadigan topshiriqlarga ehtiyoj sezadilar. Shu sababli dars davomida tinglash, takrorlash, juftlikda ishlash, o‘yin, rasm asosida gapirish va harakatli mashqlar o‘zaro almashtirib borilishi zarur. Barcha o‘quvchilarning til o‘zlashtirish sur‘ati bir xil emas. Ayrim o‘quvchilar yangi nutqiy qolipni tez egallasa, boshqalarga rasm, kalit so‘z, gap boshlanishi yoki namunaviy dialog shaklidagi qo‘shimcha yordam kerak bo‘ladi. Differensial yondashuvda barcha o‘quvchilar uchun umumiy kommunikativ maqsad saqlanadi, ammo topshiriqning murakkabligi va yordam darajasi o‘zgartiriladi. Masalan, “My family” mavzusida:

- boshlang‘ich darajadagi o‘quvchiga: “This is my His/Her name is ...” qolipi beriladi;
- o‘rta darajadagi o‘quvchiga rasm va kalit so‘zlar taklif qilinadi;
- yuqoriroq darajadagi o‘quvchiga oilasi haqida mustaqil ravishda besh-olti gap tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunday tashkil etish inkluziv ta’lim talablariga mos keladi va har bir bolaning darsda muvaffaqiyatni his etishiga yordam beradi [6].

Tizimlilik, izchillik va bosqichma – bosqichlik tamoyili. Og‘zaki nutq bir yoki ikki marta bajarilgan mashq natijasida shakllanmaydi. U muntazam, izchil va bosqichma-bosqich tashkil etilgan nutqiy faoliyat mahsulidir. Mashqlar oddiy taqlid va takrorlashdan boshlab, boshqariladigan nutq, yarim erkin muloqot va mustaqil gapirishga tomon rivojlantirilishi lozim.

Og‘zaki nutq mashqlarini quyidagi uch bosqichda tashkil etish maqsadga muvofiq:

1. Tayyorlov bosqichi – tovush, so‘z, ibora va nutqiy qoliplarni tinglash, taqlid qilish hamda takrorlash.
2. Shakllantirish bosqichi – tayanch so‘zlar, rasmlar va namunalar asosida savol-javob hamda kichik dialoglar tuzish.

3. Rivojlantirish bosqichi – mustaqil monolog, rolli o‘yin, axborot almashish va ijodiy hikoya yaratish.

Masalan, “Daily routines” mavzusida o‘quvchilar dastlab “I get up”, “I have breakfast”, “I go to school” birliklarini o‘zlashtiradi. Keyin “What time do you get up?” savoli asosida juftlikda suhbatlashadi. Yakuniy bosqichda esa “My day” mavzusida bog‘langan kichik monolog tuzadi.

Bizning fikrimizcha, og‘zaki nutq mashqlarining samaradorligi ularning soni bilan emas, balki o‘zaro metodik bog‘liqligi, takroriy qo‘llanishi va har safar yangi kommunikativ vaziyatda murakkablashib borishi bilan belgilanadi.

Ta‘limning hayot bilan bog‘liqligi va funktsionallik tamoyili. O‘quvchi darsda o‘rgangan nutqiy birliklarning real hayotdagi vazifasini tushunishi lozim. Shu sababli til materiali o‘quvchining kundalik ehtiyojlari, qiziqishlari va muloqot vaziyatlariga muvofiq tanlanadi. Salomlashish, tanishish, yordam so‘rash, minnatdorlik bildirish, buyumning joylashuvini so‘rash va yoqtirgan narsasi haqida gapirish boshlang‘ich bosqich uchun funktsional nutqiy vazifalardir. Bu tamoyli grammatik bilimni inkor etmaydi. Aksincha, grammatik vositalar muayyan fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, “can” modal fe‘li qoidani yodlash uchungina emas, “I can swim”, “A bird can fly”, “Can you ride a bike?” kabi kommunikativ vazifalarni bajarish uchun o‘rgatiladi.

Interfaollik va hamkorlik tamoyili

Og‘zaki nutq tabiatan ikki yoki undan ortiq shaxsning o‘zaro hamkorligiga asoslanadi. Shuning uchun ingliz tili darsida faqat o‘qituvchi va bitta o‘quvchi o‘rtasidagi savol-javob bilan cheklanib qolish maqsadga muvofiq emas. Juftlik, kichik guruh, “Think–Pair–Share”, rolli o‘yin, intervyu va information gap mashqlari barcha o‘quvchilarning bir vaqtda nutqiy faoliyatga kirishishini ta‘minlaydi. Masalan, axborot almashish mashqida ikki o‘quvchiga bir-biridan farq qiluvchi dars jadvali beriladi. Ular bir-biriga savol berib, yetishmayotgan ma‘lumotlarni to‘ldiradi:

- What do we have on Monday?
- We have English and Maths.
- What time is English?
- It is at nine o’clock.

Bunda o‘quvchilar o‘rtasida haqiqiy axborot ehtiyoji paydo bo‘ladi. Bu esa dialogning sun‘iy emas, mazmunli bo‘lishini ta‘minlaydi.

Didaktik tamoyillarni amalga oshirishning metodik shartlari

Yuqoridagi tamoyillar o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilgandagina kutilgan natijani beradi. Ularni amalga oshirish uchun ingliz tili darslarida quyidagi metodik shartlar ta‘minlanishi lozim:

- har bir darsda o‘quvchilarning gapirishiga yetarli vaqt ajratish;
- xatoga nisbatan qo‘rqituvchi emas, qo‘llab-quvvatlovchi munosabatni shakllantirish;
- til materialini real yoki shartli-real muloqot vaziyatlarida qo‘llash;
- tinglab tushunish va gapirish faoliyatini o‘zaro bog‘lash;
- nutqiy tayanchlarni o‘quvchining rivojlanishiga qarab bosqichma-bosqich kamaytirish;
- barcha o‘quvchilarni juftlik va guruh faoliyatiga jalb etish;
- raqamli vositalardan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish.

Raqamli va multimodal vositalar alohida didaktik tamoyil emas, balki ko‘rgazmalilik, differensiallash, faollik va mustaqil mashq qilish imkoniyatlarini kuchaytiruvchi ta‘lim vositasi sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiq. Audioyozuvlar, qisqa videolar, interaktiv o‘yinlar va ovoz yozish dasturlari o‘quvchiga o‘z nutqini tinglash, talaffuzini tahlil qilish va qayta mashq qilish imkonini beradi [7].

Xulosa

Boshlang‘ich ta‘limda ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirish kommunikativ yo‘naltirilganlik, ongillik va faollik, ko‘rgazmalilik, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish, tizimlilik va izchillik, funktsionallik hamda interfaollik tamoyillarining o‘zaro uyg‘unligiga asoslanadi. Ushbu tamoyillardan birining e‘tibordan chetda qolishi nutqiy faoliyatning to‘liq shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Kommunikativlik darsning maqsadini, interfaollik faoliyat shaklini, ko‘rgazmalilik til materialini tushunish vositasini, differensial yondashuv individual yordam darajasini, tizimlilik esa mashqlarning ketma-ketligini belgilaydi. Raqamli vositalar mazkur jarayonni qo‘llab – quvvatlaydi, biroq o‘qituvchi rahbarligi va mazmunli muloqotning o‘rnini egallamaydi.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich sinflarda og‘zaki nutqni rivojlantirishning eng maqbul yo‘li nutqiy materialni tayyor shaklda yodlatish emas, balki o‘quvchini tayanchli mashqlardan mustaqil

kommunikativ faoliyatga bosqichma – bosqich olib chiqishdir. Bunday yondashuv o‘quvchilarda nafaqat talaffuz, lug‘at va grammatik ko‘nikmalarni, balki fikrni tushunarli ifodalash, suhbatni boshlash, davom ettirish va unga munosabat bildirish qobiliyatini ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bessarab, N. Formation of Communication Skills in Primary School Students in Foreign Language Lessons in the New Ukrainian School. – 2023.
2. Zhao, Z. Implications of the Critical Period Hypothesis for Oral English Instruction in Primary Schools in China. – 2024.
3. Jalolov, J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
4. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg, 2020.
5. Mugo, T. M., Bwire, A. Strategies Used in Teaching English Language Oral Skills and Effects on Primary School Learner Participation in Embu County, Kenya. – 2024.
6. Liu, Y., Fisher, L., Forbes, K., Evans, M. The Knowledge Base of Teaching in Linguistically Diverse Contexts: Grounded Principles of Multilingual Classroom Pedagogy for EAL. – 2017.
7. Kalbergenova, Sh. V. et al. Integration of Adapted Podcasts and Digital Media into English Language Teaching for Primary School Children: Developing Creative Speech Skills. – 2026.
8. Dagarin-Fojkar, M., Grahut, M., Skubic, D. Teacher Competences for Teaching English as a Foreign Language in the First Educational Cycle of Primary Education. – 2022.
9. Puspita, D. R., Nuruddin, N., Rafli, Z. A Model of Speaking Lesson Plan Based on Contextual Learning for Primary School Teacher Education Students. – 2022.
10. Dobinson, K. L., Dockrell, J. Universal Strategies for the Improvement of Expressive Language Skills in the Primary Classroom: A Systematic Review. – 2021.
11. Savnik, U. B. English Drama as an Activity for Promoting Speaking Skills in a Foreign Language at Primary School Level. – 2025.
12. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi tizimi uchun ingliz tili fanidan Milliy o‘quv dasturi. – Toshkent.